DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-06-10-15 **Pages: 122-128**

Oriental Journal of Social Sciences

ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojss

ANTHROPOLOGICAL IDENTIFICATION OF WOMEN IN NEW UZBEKISTAN

Guzalkhon Khudoyberdievna Boykuziyeva
Acting Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy
Kokand State University
Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: women, anthropological identification, self-awareness, gender identification, national identity, religious identity, female identity, globalization, information society, national values, socialization, spiritual heritage.

Received: 10.10.26
Accepted: 11.10.26
Published: 12.10.26

Abstract: This article examines the issues of anthropological identification of women in the context of New Uzbekistan from a socio-philosophical perspective. The author analyzes the processes of women's national, religious, cultural, and gender identity formation within the framework of globalization, the information society, and contemporary social transformations. The study explores the significance of identity in the life of the individual, society, and the state, as well as the role of national and religious values in shaping women's personalities and the social factors influencing gender identification. Particular attention is paid to the role of Uzbek women in preserving national identity, ensuring the continuity of spiritual heritage, and maintaining social stability through an anthropological approach. The findings indicate that national and cultural values serve as important factors in the socialization and self-awareness of women.

YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNING ANTROPOLOGIK IDENTIFIKATSIYASI

Go‘zalxon Xudoyberdievna Boyqo‘ziyeva
Qo‘qon davlat universiteti
falsafa fanlari doktori (PhD) dotsent v.b
Qo‘qon, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar, antropologik identifikatsiya, o‘zlikni anglash, gender identifikatsiyasi, milliy identifikatsiya, diniy identifikatsiya, ayollik identivligi, globallashuv, axborotlashgan jamiyat, milliy qadriyatlar, ijtimoiylashuv, ma’naviy meros.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlarning antropologik identifikatsiyasi masalalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Muallif xotin-qizlarning milliy, diniy, madaniy va gender o‘zligini anglash jarayonlarini globallashuv, axborotlashuv hamda zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar kontekstida yoritadi. Tadqiqotda identifikatsiyaning shaxs, jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni, milliy va diniy qadriyatlarning ayol shaxsining shakllanishidagi ahamiyati hamda gender identifikatsiyasining ijtimoiy omillari tahlil etilgan. Shuningdek, o‘zbek ayollarining milliy o‘zlikni saqlash, ma’naviy merosni davom ettirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli antropologik yondashuv asosida ochib berilgan. Tadqiqot natijalari xotin-qizlarning ijtimoiylashuvi va o‘zligini anglashida milliy-madaniy qadriyatlarning muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

АНТРОПОЛОГИЧЕСКАЯ ИДЕНТИФИКАЦИЯ ЖЕНЩИН В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Гузалхон Худойбердиевна Бойкозиева
Исполняющая обязанности доцента, доктор философии (PhD) по философским наукам
Кокандский государственный университет
Коканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: женщины, антропологическая идентификация, самосознание, гендерная идентификация, национальная идентичность, религиозная идентичность, женская идентичность, глобализация, информационное общество, национальные ценности, социализация, духовное наследие.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы антропологической идентификации женщин в условиях Нового Узбекистана с социально-философской точки зрения. Автор анализирует процессы формирования национальной, религиозной, культурной и гендерной идентичности женщин в контексте глобализации, информатизации общества и современных социальных преобразований. В исследовании раскрывается значение идентификации в жизни личности, общества и государства, а также роль национальных и религиозных ценностей в становлении личности женщины и социальные факторы гендерной идентификации. Особое внимание уделено значению узбекских женщин в сохранении

национальной идентичности, преемственности духовного наследия и обеспечении социальной стабильности на основе антропологического подхода. Результаты исследования свидетельствуют о том, что национально-культурные ценности являются важным фактором социализации и самосознания женщин.

Kirish. Axborotlashgan jamiyatda xotin-qizlarning antropologik identifikatsiyasi ularning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy muhitda o‘z o‘rnini belgilash jarayonidir. Insoniyatning turli ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarini o‘rganuvchi fan sifatida antropologiya xotin-qizlar identifikatsiyasi masalasini ham qamrab oladi. Maqolada ushbu jarayon axborot texnologiyalarining ta’siri, gender tengligi va madaniy aloqalar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy, qiyosiy tahlil va ijtimoiy-falsafiy yondashuv usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi. Tabiat, jamiyat va shaxs taraqqiyoti bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, olamdagi predmetlarning o‘zaro munosabati va o‘zgarishi bilishning obyektidir. Bilishda obyekt bilan birga subyektning o‘z-o‘zini bilishi ham muhim o‘rin tutadi. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnika yutuqlari tufayli predmetlar dunyosi beqiyos kengaygan sharoitda tirik va notirik predmetlar mohiyatini bilish bilan birga insonning o‘zini anglashi ham tobora katta ijtimoiy qimmatga ega bo‘lib bormoqda.

Global makon va axborot almashuvining tezligi dunyo xalqlari va davlatlari uchun iqtisodiy taraqqiyotning yangi davrini boshlab bergan bo‘lsa-da, ijtimoiy-ma’naviy jihatdan inson ma’naviyati va madaniyatida bir xillashuv (unifikatsiya) tendensiyasining tarqalishiga olib keldi. Shu ma’noda milliy, diniy va ijtimoiy o‘zlikni anglashda insonning o‘z mohiyatidan begonalashuvi kuzatilmoqda [1].

Bu hol ilmiy muomalaga “ayol identivligi” (xotin-qizlarning milliy-ma’naviy hissiyoti va faoliyatining aynanligi, o‘z millati va e’tiqodiga mosligi) atamasini kiritish zaruratini yuzaga keltiradi.

Qadimgi yunon donishmandlariga nisbat beriladigan va Suqrot falsafasining asosiy shioriga aylangan “O‘zligingni angla!” hikmati insonning ijtimoiylashuvidagi muhim tamoyil hisoblanadi; o‘zlikni anglamaslik esa shaxsning ijtimoiy begonalashuviga olib kelishi mumkin. O‘zbek xalqi farzand tarbiyasida o‘zlikni anglashga alohida e’tibor qaratgan: har bir ota farzandiga nasl-nasabi, kelib chiqishi, kasbi-kori haqida doimo eslatib turgan. Oilaviy hayotda bolaning yetti pushtini bilishi yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning oldini olish va oilaning sog‘lom demografik madaniyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan. Rossiyalik pedagoglarning

yoshlarning milliy identifikatsiyasida ta’limni tashkil etishda fuqarolik va milliylikka urg‘u berishini ijobiy hodisa deb hisoblaymiz [2].

Xotin-qizlarning milliy o‘zligini anglashi muhim ijtimoiy-madaniy, milliy-ma’naviy va iqtisodiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning oila va jamiyatdagi ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda ayol o‘zining o‘zgalar bilan aloqadorligini, milliy birligi va kasbiy hamkorligini anglab yetadi: o‘zini muayyan ijtimoiy guruhning a’zosi sifatida his etishi tufayli milliy va kasbiy burch hamda vazifalarni bajarish zarurligini tushunadi. A. Ipatovning tahliliga ko‘ra, xristian mamlakatlarida shaxsning diniy mansubligi uning tafakkurida milliy mansublikdan ham chuqurroq o‘rin egallaydi: o‘zi haqidagi savolga ko‘pincha avvalo “pravoslavman” yoki “katolikman” deb javob beriladi [3]. Diniy mansublikning identifikatsiyadagi o‘rni boshqa jamiyatlarda ham kuzatiladi, biroq O‘zbekiston sharoitida milliy va diniy o‘zlik bir-birini to‘ldiruvchi, umummilliy qadriyatlar asosida uyg‘unlashgan omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois o‘zlikni anglashning mohiyatida tarixan xotin-qizlarning ijtimoiy mas’uliyatini bajarishi bilan bog‘liq ichki nazorat, ya’ni vijdon omili shakllangan. Xorijiy manbalarda o‘zlikni tabaqaviy sharaf va axloqiy burch bilan bog‘liq holda anglash jihati ham kuzatiladi: XIX asr rus zodagonlari muhitida sha’n uchun duelga chiqish odati (A.S. Pushkin va M.Yu. Lermontov taqdiri bunga misol) yoki yapon samuraylarining asirlikni sharmandalik deb bilishi shunday identifikatsiyaning tarixiy ko‘rinishlaridir. Shu ma’noda G‘arb ilm-fanida identifikatsiya ijtimoiy fanlarning ustuvor muammolaridan biri sifatida tadqiq etilgan; bu yo‘nalishdagi asosiy nazariy manbalardan biri E. Eriksonning tadqiqotidir [4].

Muhokama va natijalar. Avvalo, identifikatsiya tushunchasining sud-kriminalistika sohasidagi ma’nosini qayd etish lozim.

Kriminalistikada identifikatsiya deganda noma’lum obyektni ma’lum obyekt bilan ularning belgilarini solishtirish orqali aniqlash, shaxsni esa hujjatlar va tashqi qiyofa belgilariga ko‘ra aniqlash tushuniladi. Milliy identifikatsiya esa ayolning faqat tashqi qiyofasida emas, balki shu millatga xos odat, an’ana va ichki milliy his-tuyg‘ularida ham namoyon bo‘ladi. Globallashuv sharoitida diniy prozelitizmning kuchayishi mazkur masalani yanada dolzarb qiladi.

Identifikatsiya masalasi gender munosabatlari bilan ham bevosita bog‘liq. O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar qonun bilan kafolatlangan [5]. Gender tengligi ayolning milliy-ma’naviy o‘zligidan voz kechishini emas, balki uning ta’lim, mehnat va jamoat hayotida o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishini anglatadi. Shu bois qizlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy rollar bilan uyg‘unlashtirish

identifikatsiyaning ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarini tushunish va to‘g‘ri yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega.

Milliy identifikatsiyaning tarixiy namoyishi sifatida Ikkinchi jahon urushi yillarida Niderlandiyaning Amersfort konslageriga keltirilgan, asosan o‘zbeklardan iborat 101 nafar sovet asirining taqdirini keltirish mumkin: fashistlar ularni boshqa asirlarga nisbatan past deb hisoblab, ayniqsa shafqatsiz munosabatda bo‘lgan [6]. Bugungi kunda ularning nomlarini aniqlash va xotirasini abadiylashtirish ishlari milliy o‘zlikni anglashning muhim ramziga aylangan. Shu bois milliy identifikatsiya ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda ham ilmiy qimmatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi sharoitida o‘zbek xalqining sobiq tuzum mafkurasidan milliy-ma’naviy qadriyatlarga qaytishi murakkab jarayon bo‘ldi. Yurtimizning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi, dunyo xalqlari moddiy va ma’naviy madaniyatining kirib kelishi gender munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. E’tirof etish lozimki, mustaqillikka erishgan mintaqa davlatlarida demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida umuminsoniy va milliy-ma’naviy qadriyatlarga tayanish natijasida o‘ziga xos ijtimoiy muhit shakllanmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari globallashuvi sharoitida “ommaviy madaniyat”ning tarqalishi ayolni milliylikdan “ommaviylik” sari tortmoqda. Natijada xotin-qizlarning o‘zligini tasdiqlash ehtiyoji tobora kuchayib bormoqda.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, shaxsning o‘zligini anglashi ijtimoiy-ma’naviy bilish darajasi bo‘lib, o‘zidagi milliy va ma’naviy jihatlarni millatdoshlari va e’tiqoddoshlarinikiga solishtirish orqali muayyan jamoaga mansublikni his etishdir. Bu hol tarixiy va ijtimoiy xususiyatga ega: odamlarning uzoq ijtimoiy tajribasida qayta-qayta takrorlangan holatlar tafakkurda mustahkam, tabiiy me’yorga aylanib, avtomatizm darajasiga ko‘tariladi. Diniy o‘zlik ham shu tarzda – o‘z e’tiqodini anglash orqali shakllanadi. Milliy odat va an’analar, marosimlar, til va hududiy omillar orqali o‘zbekona fe’l-atvorning ong va tafakkurga singishi milliy hissiyotni hosil qiladi.

Ikkinchidan, davlatning siyosiy hayotida identifikatsiyaga ijtimoiy-huquqiy masala sifatida ustuvor ahamiyat berilishi tabiiy bo‘lib, u milliy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi [7]. Davlat uchun fuqarolarning identifikatsiyasi siyosiy munosabatlarda muhim omil, sud-huquq sohasida zarurat, ijtimoiy masalalarda esa ehtiyoj sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘pmillatli va ko‘pkonfessiyali O‘zbekiston jamiyatida davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari inson manfaatlari ustuvorligi va qonun ustuvorligi tamoyillariga asoslanadi. O‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi asosida umummilliy ma’naviy tuyg‘uni shakllantirish, “o‘zbekman” deb faxrlanish tarbiyaviy tuyg‘ularning negizi hisoblanadi. Fuqaroning o‘zligini anglashi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy xususiyatlarda ham namoyon bo‘ladi. Shaxsning o‘z

millati, e’tiqodi va Vataniga mansubligini chuqur his etishi buzg‘unchi g‘oyalar xurujiga qarshi tabiiy himoya vazifasini o‘taydi. Bu esa globallashuv sharoitida millatlararo va dinlararo integratsiya jarayonida milliy o‘zlik va aynanlik kabi fazilatlarni saqlab qolish imkonini beradi.

Uchinchidan, xotin-qizlarning ijtimoiy o‘zligini antropologik jihatdan anglash muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, uning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yoritishda milliy, ma’naviy va ilmiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish uslubiy jihatdan to‘g‘ri yo‘l deb hisoblaymiz. O‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyotida qizlar tarbiyasida o‘ziga xos “ayollik turmush falsafasi” shakllangan bo‘lib, qizning o‘zini ayollar jamoasining vakili sifatida anglashi uning dunyoqarashiga aylangan. Ota-onalar tarbiyasi orqali qizlar o‘zini anglash va his etish bilan birga o‘zbek ayoliga xos fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Shu ma’noda olima S. Safayevaning ayollik fazilatlari uzoq tarixiy davrda shakllangan o‘ziga xos “ayollar madaniyati” ekani haqidagi fikrini qo‘llab-quvvatlaymiz [8].

Xulosa. Ayolning antropologik jihatdan o‘z ijtimoiy maqomi va rolini anglashi milliy-ma’naviy o‘zligini his qilish bilan uyg‘un holda kechadi. Shu bois qiz bolaning identifikatsiyasida ijtimoiy muhit va tarbiya falsafasining uyg‘unligi ijtimoiy munosabatlarga barqarorlik bag‘ishlaydi. Qizlarning ijtimoiylashuvi nozik davr bo‘lib, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi tanlov ziddiyatli kechishi mumkin; to‘g‘ri yo‘naltirilgan tarbiya esa ularning ijodiy qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Globallashuv va “ommaviy madaniyat” ta’siri kuchaygan sharoitda milliy qadriyatlarni gender tengligi va zamonaviy ijtimoiy rollar bilan uyg‘unlashtirish xotin-qizlar identifikatsiyasini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Demak, qizlarning identifikatsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy muhit bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авагимян А.А. О соотношении понятий этничность, этническое самосознание и этническая идентичность [Электронный ресурс] // КиберЛенинка. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-sootnoshenii-ponyatiy-etnichnost-etnicheskoe-samosoznanie-i-etnicheskaya-identichnost (дата обращения: 18.06.2021).

2. Дашковский П.К., Шершнева Е.А. Национальная и гражданская идентичность: рабочая программа учебной дисциплины // Народы и религии Евразии. – 2018. – № 3 (16). – С. 130.

3. Ипатов А. Православие и культура. – М.: Наука, 2004. – С. 12.

4. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М.: Прогресс, 1996. – 344 с.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // https://lex.uz.

6. G‘aybullayeva Z. Amersfort konslageridagi o‘zbek askarlari. Ulardan birinchisining shaxsi aniqlandi // https://kun.uz/news/2021/10/17/amersfort-konslageridagi-ozbek-askarlari-ulardan-birinchisining-shaxsi-aniqlandi (17.10.2021).

7. Ачкасов В.А. Политика идентичности // Вестник СПбГУ. – 2013. – Вып. 4. – С. 72.

8. Сафаева С. Аёллар масаласи: миллий-этник жиҳатлар. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – Б. 38.